

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Baxshillo Ashurov

“O`zbek bolalar adabiyoti ”
fanidan amaliy mashg`ulotlar va mustaqil ta'limni tashkil etish

(metodik qo`llanma)

Navoiy – 2010

Mazkur metodik qo'llanmada o'zbek filologiyasi fakulteti talabalarining "O'zbek bolalar adabiyoti" fanidan amaliy mashg'ulotlar mavzusi va rejasi, mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar, mustaqil ta'lim mavzulari, uni bajarishga doir uslubiy ko'rsatmalar hamda adabiyotlar va internet manzillarida mavjud saytlar berilgan.

Metodik qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan 2006-yil 26-iyunda tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida hamda OO'MTVning "Talabalar mustaqil ta'lim topshiriqlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risidagi Nizomi"ga muvofiq tuzildi.

Qo'llanma pedagogika institutlarining O'zbek filologiyasi fakulteti talabalari, adabiyot fani o'qituvchilari va keng kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: O.QAYUMOV

filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar: A.XOLMURODOV

filologiya fanlari doktori

S.JUMAYEVA

filologiya fanlari nomzodi

Mazkur metodik qo'llanma Navoiy davlat pedagogika instituti Ilmiy-uslubiy kengashining 2010-yil 1-fevraldagi 6-sonli bayonnomasi bilan nashirga tavsiya etilgan.

SO'Z BOSHI

Malumki, mamlakatimizda amalga oshirilay otgan talim islohotlari talim tizimini tubdan yangilash, oliy talim tizimida o'qitilayotgan fanlarni mazmunan yangilash, talim jarayonida talim oluvchilarning faolligini oshirishni taqazo etmoqda.

Olib borilayotgan talim islohotlarining mohiyatida yosh avlod tarbiyasi, chuqur bilimga ega, manaviyati yuksak komil insonni shakllantirish yotadi. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganidek, "Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak."¹ Buyuk adiblarni tarbiyalash ishlari adabiyot darslarining sifat va samaradorligini oshirish ishlaridan boshlanadi.

O'zbek bolalar adabiyoti uning o'ziga xosliklarini o'rganish faqat ma'ruza yoki amaliy mashg'ulotlar bilangina amalga oshmaydi. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish, talabalarga bosqichma-bosqich topshiriqlar metodikasini ishlab chiqish har bir fan o'qituvchisidan jiddiy mashaqqatni talab etadi. Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedراسи dotsenti, filologiya fanlari nomzodi B.Ashurov tomonidan tayyorlangan mazkur metodik qo'llanma "O'zbek bolalar adabiyoti" fani spetsifikasini o'zlashtirib olishda talabalarimizga optimal yo'lni ko'rsatishga xizmat qiladigan, talabalar mustaqil ishlarini bajarishda yaqindan yordam beruvchi uslubiy vosita ekanligini alohida ta'kidlashimiz zarur. Mazkur metodik qo'llanma bolalarga xos bo'lgan adabiyotimizning o'ziga xosligi, nazokati, badiiyati, adiblarimiz ijodiy portretini o'zlashtirib olish uchun uslubiy tavsiyalar, topshiriqlar, manbalar ko'rsatgichlari, shuningdek, mazkur fandan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga doir uslubiy ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. Тошкент, Маънавият, 2008. -Б.5.

KIRISH

“O‘zbek bolalar adabiyoti” kursi oliy ta‘limning bakalavriat yo‘nalishiga mo‘ljallangan. Unda o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligida ta‘lim olayotgan talabalarga o‘zbek bolalar adabiyotining jahon adabiyotida tutgan o‘rni, folklor bilan chambarchas bog‘liqligi, tarbiyaviy mohiyati, didaktik xususiyatlari, bolalarga bag‘ishlangan asarlarning kitobxonlar yosh xususiyatlariga ko‘ra tasniflanishi, badiiy uslubiy izlanishlar, taraqqiyot tamoyillari, janrlar rang-barangligi hamda boshqa fanlar bilan aloqasi yuzasidan tushuncha berish ko‘zda tutiladi.

Mazkur kursda o‘zbek bolalar adabiyoti jahon adabiyotining ajralmas qismi sifatida ma‘ruza, amaliy mashg‘ulot, mustaqil ta‘lim va reyting tizimi kabi ta‘lim shakllari vositasida o‘qitiladi.

“ O‘zbek bolalar adabiyoti” fani o‘zbek adabiyoti, adabiyot nazariyasi, hozirgi adabiy jarayon, pedagogika fanlari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

Ko‘zlangan natijaga erishish uchun talaba albatta har bir o‘quv mashg‘ulotiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi, berilgan topshiriq va vazifalarni bajarishi lozim. Ta‘lim tizimiga qo‘yilgan yangicha talablar talabalarning mustaqil ta‘lim soatlarini tashkil etish va undan unumli foydalanishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bakalavriat yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun “O‘zbek bolalar adabiyoti” fanidan ushbu metodik ko‘rsatmani tuzishga harakat qildik. Metodik ko‘rsatma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus ta‘lim vazirligining 2006-yil 26-iyundagi 167-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida hamda OO‘MTVning “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to‘g‘risidagi Nizomi”ga muvofiq tuzildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2009-yil 14-avgustdagi “Ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini baholashning reyting tizimini takomillashtirish haqida”gi **286-sonli buyrug‘i** asosida baholash tavsiya etildi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR

Mavzu: Bolalar adabiyoti fan sifatida

Amaliy mashg‘ulot rejasi:

- 1.Bolalalar adabiyotining shakllanish tarixi.
- 2.Bolalar adabiyoti san‘at va fan turi sifatida.
- 3.Bolalar adabiyoti va folklor.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Bolalar adabiyoti qaysi fanlar bilan chambarchas bog‘liq?
2. O‘zbek bolalar adabiyotining san‘at turi sifatida shakllanishi hamda fan sifatidagi taraqqiyoti haqida gapiring. Bu masala qaysi olimlar tadqiqotlarida yoritilgan?
3. Xalq og‘zaki ijodi va bolalar kitobxonligi haqida gapiring. Folklorda yaratilgan qanday asarlar bolalar uchun mo‘ljallangan?
4. Bolalar adabiyotining qat‘iy xarakterlangan adabiyot darajasiga kelguncha bo‘lgan taraqqiyotida qanday asarlar alohida bosqichni tashkil etadi?

Mavzu: Bolalar adabiyotining janr xususiyatlari

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Allalar va ularning janriy xususiyatlari.
2. Qo'shiqlar.
3. Tez aytishlar.
4. Topishmoqlar.
5. Ertaklar.
6. Rivoyatlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Alla xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?
2. Qo'shiqlar qaysi adabiy yodgorlik orqali bizgacha yetib kelgan?
3. Xalq og'zaki ijodining qaysi janri bolalarda ba'zi tovushlarni to'g'ri va ohangdor talaffuz qilish ko'nikmalarini orttiradi, ularni biyron so'zlashga o'rgatadi?
4. Topishmoqlar tuzilishiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?
5. Ertaklarning boshqa janrlardan ajratib turadigan xususiyatlarni sanang. Ularning qanday turlari mavjud?
6. Rivoyat bilan ertakning bir-biridan farqlanuvchi tomonlarini sanang. Qadimgi rivoyatlardan qaysilarini bilasiz? Ular qanday manbalar orqali yetib kelgan?

Mavzu: "Devoni lug'otit-turk", "Qutadg'u bilig" asarlarida tarbiyaviy g'oyalarning kuylanishi

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. "Devoni lug'atit-turk" asaridagi she'riy parchalarda ilm fazilati va olimlarga hurmat g'oyalarining targ'ib etilishi.
2. Asardagi she'riy parchalarda molparastlik va manfaatparastlikning qoralanishi.
3. "Qutadg'u bilig" asarida ilm-fan va kasb-hunarning insonga keltiradigan foydalari haqida.
4. Asarda davlatni idora etuvchi yuksak martabali kishilar fe'l-atvorlari haqida.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. "Devoni lug'atit-turk"da berilgan qadimiy qo'shiqlarda mol-mulkka havas qo'ymaslik haqida nimalar deyilgan?
2. Asarda keltirilgan pand-nasihat ruhidagi she'riy parchalar faqat real hayot ko'rinishlariga baho berish maqsadida ishlatilganmi yoki ayrim hayotiy lavhalar orqali inson umrini, uning hayoti mazmunini qadrlashga chorlashdan iboratmi?
3. "Qutadg'u bilig" asarida berilgan:
Qayu yerda bo'lsa uqush bila o'g,
Ani er atag'il, necha o'g'sa o'g.
Uqush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal,
Yavuz ersa kaz te, kichig ersa – o'g,

misralarini sharhlang. Zakovatli, bilimli, aqlli kishilarni ulug'lashga da'vat etuvchi ushbu misralarning ma'rifiy ahamiyati nimada?

4. Asarning 31-bobida rahbar ma'naviyati masalasi yoritilgan. Muallif davlat boshlig'i qanday sifatlarga ega bo'lishi lozimligini uqtiradi?

5. "Qutadg'u bilig"da "bek ikki narsa bilan elni buzadi", degan fikr aytilgan. Bu ikki narsa nima? Bunga sizning munosabatingiz?

Mavzu: Navoiy ijodida bola tarbiyasi masalasi
Amaliy mashg'ulot rejasi

1. "Hayrat ul-abror" dostonida rostgo'ylik, to'g'rilik va halollik kabi masalalarning yoritilishi.

2. "Hayrat ul-abror" asarida ilm-fanga, ilm ahliga berilgan baho.

3. Yoshlarni ilm olishga, olimlarni hurmat qilishga undash g'oyalari.

4. "Mahbub ul-qulub" asarida inson tarbiyasi masalasining yoritilishi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. "Hayrat ul-abror" dostonining qaysi boblarida odob-axloq, bola tarbiyasi masalasi ko'tarilgan?

2. O'ninchi maqolatdan keyin berilgan hikoyat mazmunini so'zlang. Durrojning tuzoqqa tushish sababini tushuntiring. Ushbu hikoyatdan chiqariladigan asosiy xulosa nima?

3. "Hayrat ul-abror" dostonining o'n birinchi maqolatidagi

"Ilmni kim vositai joh etar,

O'ziniyu xalqni gumroh etar" – misralarini sharhlang. Ushbu bobda ilm ahli haqida yana qanday fikrlar ilgari surilgan?

4. Imom Faxr Roziy bilan Muhammad Xorazmshoh o'rtasida bo'lgan suhbat mazmunini hikoya qilib bering. Undan qanday xulosaga kelish mumkin?

5. "Mahbub ul-qulub" asaridan olingan

"Haq yo'lida kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila" – baytining ma'nosini sharhlang. Asarda maktab, o'qituvchi, ustozlik haqida yana qanday fikrlar ilgari surilgan?

Mavzu: O'zbek bolalar adabiyotida milliy uyg'onish
g'oyalari talqini
Amaliy mashg'ulot rejasi

1. Jadid adabiyotida ta'lim-tarbiya masalasining yoritilishi.

2. Milliy ta'lim-tarbiya va bolalar adabiyoti.

3. "Yengil adabiyot", "Qiroat kitobi" darsliklarida tarbiya masalasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Jadid adabiyotiga xos bo'lgan qaysi asarlarda ta'lim-tarbiya masalasi yoritilgan? XX asr boshlarida yaratilgan ko'pgina asarlarda ta'lim-tarbiya masalasi asosiy o'ringa ko'tarilganligining sababini tushuntiring.

2. Behbudiyning “Padarkush” dramasida Toshmurodning oʻz otasi qotiliga aylanishiga nima sabab boʻldi?
3. Hamza kichik maktab yoshidagi bolalarga atab qanday darsliklar yaratgan?
4. “Yengil adabiyot” darsligiga kiritilgan “Toʻgʻri soʻz bola” sheʼrini oʻqing va tahlil qiling. Barcha narsa pul va boylik bilan oʻlchangan jamiyatda hamma narsadan toʻgʻri soʻzni ustun qoʻygan bola obraziga eʼtibor qarating.
5. Hamzaning “Oʻqish kitobi” deb nomlangan ikkinchi darsligida qaysi oʻquv quroli “Qoradir garchi izi, nuri haqiqatdir oʻzi” deb taʼriflangan? Misra mazmunining tarbiyaviy ahamiyati haqida nima deya olasiz?
6. Baʼzi mutaxassislar Hamzaning “Yengil adabiyot”, “Oʻqish kitobi” hamda “Qiroat kitobi” darsliklarini badiiy adabiyot namunalari sifatida ham tadqiq etishni tavsiya etadilar. Buning sababi nimada?

Mavzu: “Turkiy guliston yoxud axloq”

asarida tarbiya masalasi

Amaliy mashgʻulot rejasi:

1. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida yaxshi va yomon xulqlar haqida.
2. Asarda bola tarbiyasi masalasining yoritilishi.
3. Fikr va axloq tarbiyasi haqida.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Maʼlumki, fors-tojik shoiri Saʼdiy Sheroziyning “Boʻston” va “Guliston” asarlari yuzlab yillar davomida eski maktablarda asosiy darslik vazifasini oʻtagan. Bu asarlarning kimlar tomonidan qilingan tarjimalarini bilasiz?
2. Soʻzing boʻlsa kumush, jim turmak oltun,
Misi chiqgʻay soʻzing koʻp boʻlsa bir kun, – misralarining maʼnosini tushuntiring va baytda qoʻllanilgan badiiy sanʼat turiga eʼtibor qiling.
3. Asarda berilgan
Temirchining bolasi tarbiyat topsa, boʻlur olim,
Buzulsa xulqi, Luqmon oʻgʻli boʻlsa, boʻlgusi zolim.
Yomonlarga qoʻshuldi Nuhning oʻgʻli, boʻldi beimon,
Yururdi Kahf iti xoʻblar ila, boʻldi oti inson, – misralarining mazmunini izohlang.
4. Avloniy qaysi tarbiya turini “..muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur”, – deb ataydi?
5. Abdulla Avloniyning “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot; yo najot, yo halokat; yo saodat, yo falokat masalasidir” , – degan fikrlarni izohlang.
6. Abdulla Avloniy qaysi asari haqida “Men bu asarimni maktablarimizning yuqori sinflarida taʼlim bermak ila barobar oʻlur adabiyot muhiblari – axloq havaskorlarining eʼtiboriga taqdim qildim”, - deb yozadi? Sababini tushuntirishga harakat qiling.

Mavzu: XX asr o'zbek bolalar she'riyati va uning o'ziga xos xususiyatlari

Amaliy mashg'ulot rejasi

1. XX asr boshlarida o'zbek bolalar she'riyati.
2. 30-yillar bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Urush yillari va undan keyingi yillarda bolalar she'riyati.
4. I.Muslim, G'ayraty, H.Nazir, Q.Muhammadiylar ijodida ta'lim va tarbiya masalasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. XX asr boshlarida o'zbek bolalar adabiyoti ma'rifatparvarlik adabiyoti sifatida shakllanishiga sabab nimada?
2. Bolalar adabiyotida davr muammolarining real tasvirini berish orqali uni yangi bosqichga ko'tarish qaysi davrga to'g'ri keladi?
3. Ma'lumki, 30-yillar bolalar adabiyoti Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Shukur Sa'dulla, Quddus Muhammadiy, Ilyos Muslim, G'ayraty singari professional bolalar yozuvchilarining kirib kelishi bilan ajralib turadi. Shu davr bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan yana nimalarni bilasiz?
4. Sulton Jo'ra qalamiga mansub bo'lgan "Tinish belgilarining majlisi" she'rida qaysi tinish belgilari haqida so'z boradi va ular nimalarga o'xshatiladi?
5. Quddus Muhammadiy ijodida tabiat va inson kamoloti mavzusi yetakchilik qilishining sababi nimada deb o'ylaysiz?

Mavzu: Zafar Diyor professional bolalar shoiri sifatida

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Zafar Diyor ijodida inson va tabiat munosabatlarning aks etishi.
2. Bolalarga xos bo'lgan yangilikka intilish va qiziqish tuyg'ularining Zafar Diyor she'rlarida tasvirlanishi.
3. Mehnatga muhabbat ruhida yaratilgan asarlar. "Kichkina bog'bon haqida doston" asari tahlili.
4. Zafar Diyorning bolalarga atalgan nasriy va dramatik asarlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Shoirning qaysi she'rlarida inson va tabiat munosabatlari aks ettirilgan?
2. "Yuksak tog', keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa" dostonida ilgari surilgan qarashlarga, inson tabiatni ham o'ziga bo'ysundiruvchi kuch sifatida ta'riflanishiga munosabatingiz?
3. Bolalarni fan-texnika yangiliklari bilan tanishtirish, uning asoslarini egallash kabilarga da'vat etish qaysi she'rlarda ilgari surilgan?
4. "Kichkina bog'bon haqida doston" asarining asosiy g'oyasi nimadan iborat?
5. "Kichkina bog'bon haqida doston" asarida Shotursunning yalqovlik, dangasalik singari yomon illatlardan qutulishiga nima sabab bo'ladi?
6. Zafar Diyorning bolalar hayoti haqida hikoya qiluvchi qanday dramatik asarlari bor?
7. "Cho'pon qiz" hikoyasining syujetini aytib bering.

Mavzu: Xudoyberdi To'xtaboyev – bolalar yozuvchisi sifatida

Amaliy mashg'ulot rejasi

1. Xudoyberdi To'xtaboyevning bolalar uchun mo'ljallangan asarlari va ularning o'ziga xos jihatlari xususida.
2. "Sariq devni minib" romanida tarbiyaviy g'oyaning yangicha qo'yilishi.
3. "Qasoskorning oltin boshi" – tarixiy mavzudagi roman.
4. Asarda sarguzasht va fantastika unsurlarining uyg'unligi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Yozuvchi qaysi asarlari orqali hajviy qissalar safini kengaytirdi?
2. "Sariq devni minib" asaridagi Hoshimjon xarakteriga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
3. "Sariq devning o'limi" romanida sehrli qalpoqcha Hoshimjonga qanday masalalarda yordam beradi? "Sariq devni minib" asaridagi Hoshimjon bilan "Sariq devning o'limi" romanida tasvirlangan Hoshimjon obrazlari xarakterida qanday farqli tomonlarni ko'rish mumkin?
4. "Qasoskorning oltin boshi" – tarixiy shaxs, xalq qasoskori Namoz taqdiri haqida hikoya qiladi. Ammo roman tarixiy-biografik asar sanalmaydi. Buning sababi nimada?
5. Asarda Namoz qaysi xalq qahramoniga qiyos qilinadi? Xalqning Namozga bo'lgan muhabbatining sababi nimada deb o'ylaysiz?

Mavzu: A.Obidjon ijodida satira va yumor

Amaliy mashg'ulot rejasi

1. Anvar Obidjon she'rlarida majoziy-yumoristik tasvir.
2. "0099 raqamli yolg'onchi" qissasining obrazlar olami.
3. "Alamazon va uning piyodalari" asarlarida hayotdagi illatlarning tanqid qilinishi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Anvar Obidjon she'rlarining o'ziga xos xusuiyati nimadan iborat?
2. Shoirning ko'pgina she'rlari qo'shiq, maktub, cho'pchak shaklida yaratilgan. Ulardagi shakliy o'xshashlik kitobxonga qanday qulaylik yaratadi?
3. "0099 raqamli yolg'onchi" qissasining obrazlari haqida gapiring.
4. Qissa kompozitsiyasining mukammalligini qaysi o'rinlarda ko'rish mumkin?
5. Anvar Obidjonning qaysi asarida xudbinlik va manmanlik, laganbardorlik va mansabparastlik avj olgan makon oxir-oqibat tanazzulga yuz tutishi mumkinligi aytilgan?

MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI, TOPSHIRIQ SHAKLI VA BAHOLASH MEZONLARI

"O'zbek bolalar adabiyoti"

Mavzu va tayanch tushunchalar	Soat	Topshiriq shakli	Ball	Baholash mezonlari
--	-------------	-------------------------	-------------	---------------------------

Bolalar adabiyoti va xalq og`zaki ijodi	4	Mavzu bo`yicha ilmiy adabiyotlar bilan tanishish. Berilgan adabiyotlarni konspektlashtirish. Bolalar uchun mo`ljallangan folklor namunalaridan parchalar yod olish.	5 b	Adabiyotlarni o`qish: 1 b. Konspekt mantiqiyliqi, savodxonligi: 2 b. Yod olish: 2 b.
Didaktik adabiyot namunalari	6	Kaykovusning “Qobusnoma”, Navoiyning “Hayrat ul-abror” va “Mahbub ul-qulub” asarlarini o`qish. Ularda ilgari surilgan ta`lim-tarbiyaga oid qarashlar, pand-nasihatlariga diqqat qilish. “Didaktik adabiyot namunalarida bolalar uchun mo`ljallangan hikoyatlar” mavzusida referat tayyorlash.	4 b	Adabiyot bilan tashishi, hikoyatlarni o`rganish: 2 b. Referat savodx-gi, rasmiylashtirilishi va himoyasi: 2 b.
“Qutadg`u bilig”da axloqiy-ta`limiy qarashlar	4	“Qutadg`u bilig” asarini o`qish, obrazlar ramziyligi va ularning nomlanishiga e`tibor qilish. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar bilan tanishish, ularni konspektlashtirish.	4 b	Asarni o`qish,obrazlarni tasnif qilish: 2 b. Konspekt mantiqiyliqi, savodxonligi: 2b
XX asrda o`zbek	4	Mavzu bo`yicha	3 b	Berilgan asarni

bolalar adabiyoti		ilmiy adabiyotlar bilan tanishish, ularni konspektlashtirish. Belgilangan mavzu bo'yicha ilmiy matn tayyorlash. XX asrda o'zbek bolalar adabiyotining fan sifatida shakllanishiga diqqat qilish.		o'qish: 1b Matn savodxonligi va fikrlar izchiligi: 2 b.
Bolalar adabiyotida urush va tinchlik mavzusi.	4	Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda bolalar uchun mo'ljallab yaratilgan asarlar bilan tanishish. Ularda urush va tinchlik mavzusining ko'tarilishiga diqqat qilish. Obrazlar olamini tahlil qilish. Namunalar yod olish. Berilgan mavzu bo'yicha referat tayyorlash.	4b	Berilgan asarlarni o'qish va namunalar yod olish: 2b Matn savod-gi va fikrlar izchiligi:2 b
Xudoyberdi To'xtaboyev bolalar yozuvchisi sifatida.	4	X.To'xtaboyevning bolalarga mo'ljallangan asarlarini mutolaa qilish. Adib asarlarida beg'ubor bolalik ruhiyati tasviriga e'tibor qaratish. X.To'xtaboyev haqida yaratilgan ilmiy maqolalarni o'qish va	4 b	Adib asarlari bilan tanishish:3 b. Konspekt mantiqiyligi, savodxonligi:1b.

		konspektlashtirish.		
Tursunboy Adashboyev bolalar shoiri sifatida.	4	Tursunboy Adashboyev she'riy to'plamlarini mutolaa qilish. Shoir asarlarida hayotga munosabat talqiniga e'tibor qaratish. Tursunboy Adashboyev haqida yaratilgan ilmiy maqolalarni o'qish va konspektlashtirish.	4b	Adib asarlari bilan tanishish:3 b. Konspekt mantiqiyligi, savodxonligi:1b.
Istiqlol davri bolalar adabiyoti.	6	Istiqlol davrida bolalar uchun mo'ljallab yaratilgan asarlar bilan tanishish. Ularning mavzulariga diqqat qilish. Berilgan mavzu bo'yicha konspekt tayyorlash va namunalar yod olish.	4b	Adabiyotlarni o'qish: 2 b. Konspekt mantiqiyligi, savodxonligi:1 b. Yod olish: 1 b.

1-mavzu: Bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodi

Metodik ko'rsatma

Bolalar adabiyoti va bolalar kitobxonligi. Bolalar adabiyotining xarakterli xususiyatlari. Bolalar adabiyotining xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq jihatlari. Bolalar folklorining kattalar tomonidan ijro etilishi. Uning o'ziga xos jihatlari. Bolalar uchun mo'ljallangan xalq og'zaki ijodi namunalari. Ertaklar: maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga o'qib, hikoya qilib beriladigan ertaklar; maktab yoshidagi kichik bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar; o'rta va katta maktab yoshidagi bolalarga o'qish uchun tavsiya etiladigan ertaklar.

Topshiriqlar:

1. M.Jumaboyevning "O'zbek va chet el bolalar adabiyoti" darsligi hamda Safo Matjon va Maqsud Qurboniyozovlarning "Bolalar adabiyoti: ijodiy-uslubiy izlanishlar" nomli o'quv qo'llanmasidagi mavzuga doir o'rinlarni o'qing va konspekt qiling.
2. Bolalarga mo'ljallangan xalq og'zaki ijodi namunalari va ularning xarakterli xususiyatlariga diqqat qiling.

3. Xalq og`zaki ijodining bolalar tomonidan ijro etiladigan janrlariga e`tibor qarating. Ulardan ko`zlangan asosiy maqsad nima?
4. Allalarning o`ziga xos tarbiyaviy ahamiyati haqida gapiring. Ulardan namunalar yod oling.

Adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. O`zbek va chet el bolalar adabiyoti. Toshkent, 2002.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 1994.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, 2006.
4. Barakayev R. O`zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. Toshkent, 2004.
5. Suyumov A., Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 1995.
6. Safo Matjon, Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti ijodiy-uslubiy izlanishlar. Toshkent, 2009.
7. [www.o`zbek-adabiyoti.com](http://www.o`zbek-adabiyoti.com)

2-mavzu: Didaktik adabiyot namunalari

Metodik ko`rsatma

Didaktik adabiyot: shakllanishi va taraqqiyoti, unda ilgari surilgan asosiy masalalar. Didaktik adabiyotning xarakterli xususiyatlari. X-XII asrlarda yaratilgan didaktik asarlar. Ularda ilgari surilgan g`oya va qarashlar. Kaykovusning “Qobusnoma” asari. Unda yoshlarni ilm-ma`rifatga, mehnatsevarlikka va kasb-hunar egallashga chaqirish. Navoiyning “Hayrat ul-abror” va “Mahbub ul-qulub” asarlarida ta`lim-tarbiyaga oid fikrlar. Ijodkor fikrlarini dalillaydigan hikoyatlar.

Topshiriqlar:

1. Kaykovusning “Qobusnoma” asarini o`qing. Asarda farzand tarbiyasida ota-ona e`tibor qilishi lozim bo`lgan jihatlarga diqqat qiling.
2. “Qobusnoma”da barcha hunardan qaysi hunar yaxshiroq, deb ko`rsatiladi. Buning sababini izohlang.
3. Asarning oltinchi bobida insonni barcha maxluqotlardan ajratib turadigan beshta zohir va beshta pinhon xususiyat haqida gap boradi. Ular qaysilar?
4. Navoiyning “Hayrat ul-abror” va “Mahbub ul-qulub” asarlarini o`qing. Ularda ilgari surilgan ta`lim-tarbiyaga oid qarashlar, pand-nasihatlarga diqqat qiling.
5. Navoiy asarlarida rostlik va yolg`onchilik haqida qanday fikrlar yuritiladi? Ushbu mavzuni yoritish uchun qanday hikoyatlar keltirilgan?
6. “Didaktik adabiyot namunalari bolalar uchun mo`ljallangan hikoyatlar” mavzusida referat tayyorlang.

Adabiyotlar:

1. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent, 2006.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 9-tom. Toshkent, 2003.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. 14-tom. Toshkent, 2004.
4. Irisxo`jayeva S. Bolalar adabiyotida didaktika. Toshkent, 1977.
5. Irisxo`jayeva S. Kichkintoylar olami. Toshkent, 1982.
6. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, 2006.

7. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. Toshkent, 2004.
8. Safo Matjon, Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti ijodiy-uslubiy izlanishlar. Toshkent, 2009.
7. www.o'zbek-adabiyoti.com

3-mavzu: “Qutadg`u bilig”da axloqiy-ta’limiy qarashlar

Metodik ko`rsatma

“Qutadg`u bilig” – axloqiy-ta’limiy asar sifatida. Asarda ilm-ma’rifat g`oyalarning yetakchilik qilishi. Qoraxoniylar davrining ijtimoiy-siyosiy masalalari badiiy talqini. “Qutadg`u bilig”da elchilar, savdogarlar, dehqon va hunarmandlar zikri.

Topshiriqlar:

1. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” asarini o`qing. Obrazlarning nomlanishiga, ramziyligiga diqqat qiling.
2. Asardan ilm-ma’rifat g`oyalari ifodalangan o`rinlarni topib, ularni tahlil qiling va namunalar yod oling.
3. Asarga olim va donishmand kishilarni saroyga taklif qilish g`oyasi singdirib yuborilgan. Sizningcha, bu g`oya qaysi obrazlar xatti-harakatida namoyon bo`ladi? Fikringizni misollar yordamida isbotlashga harakat qiling.
4. Asar qoraxoniylar hukmdori Bug`roxonga taqdim etilishining sababi nimada? Shu haqidagi fikr-mulohazalaringizni muallifning davlat boshqaruv ishlarini tashkil etish haqidagi g`oyalari bilan uyg`unlikda bayon etishga harakat qiling.
6. Elchilar, savdogarlar, dehqon va hunarmandlar zikri berilgan o`rinlarni qaytadan o`qing va ularni nasriy bayon shaklida daftaringizga ko`chirib oling.
7. K.Karimovning “Ilk badiiy doston” asarini o`qib, konspektlashtiring.

Adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. Toshkent, 1971.
2. Suyumov A., Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 1995.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. Toshkent, 1977.
4. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006.
5. Irisxo`jayeva S. Bolalar adabiyotida didaktika. Toshkent, 1977.
6. Irisxo`jayeva S. Kichkintoylar olami. Toshkent, 1982.
7. To`xliyev B. “Qutadg`u bilig”da rang ramzlariga doir. “O`zbek tili va adabiyoti”. 2001, 3-son.
8. Karimov K. Ilk badiiy doston. Toshkent, 1976.
9. www.o'zbek-adabiyoti.com

4-mavzu: XX asrda o`zbek bolalar adabiyoti

Metodik ko`rsatma

XX asr boshlarida o`zbek bolalar adabiyotining shakllanishi. Alifbo va o`qish kitoblari. Avloniy va Hamza darsliklari. Bolalar uchun maxsus tarjima qilingan asarlar. Shayx Sa’diyning “Guliston” va “Bo`ston” asarlari. Rus adabiyotidan qilingan tarjimalar.

Topshiriqlar:

1. R.Barakayevning “O`zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” kitobidagi “O`zbek bolalar adabiyotining yuzaga kelish omillari” mavzusini o`qing va uni konspektlashtiring.
- 2.O`zbek bolalar adabiyotining yuzaga kelish omillariga diqqat qiling. Kitobda ilgari surilgan bolalar adabiyoti taraqqiyotining asosiy davrlari tasnifiga munosabat bildiring?
3. Ma`lumki, XX asr boshlarida bolalar adabiyoti ikkita asosiy tarmoqdan iborat bo`lgan. Ular qaysi tarmoqlar?
4. XX asr boshlarida yaratilgan alifbo va o`qish kitoblari, ularda e`tibor qilingan asosiy jihatlarni ayting.
5. Bolalar uchun maxsus tarjima qilingan asarlar haqida gapiring. Ular qaysi tillardan tarjima qilingan? Tarjima asarlar ta`sirida yaratilgan asarlarga diqqat qiling.
6. “XX asrda o`zbek bolalar adabiyoti” mavzusida ilmiy matn tayyorlang.

Adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. O`zbek va chet el bolalar adabiyoti. Toshkent, 2002.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 1994.
- 3.Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, 2006.
4. Barakayev R. O`zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. Toshkent,2004.
5. Barakayev R. Jonajonim, she`riyat: 80-yillar o`zbek bolalar she`riyati haqida ba`zi qaydlar. Toshkent, 1997.
5. Suyumov A., Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 1995.
- 6.Safo Matjon, Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti ijodiy-uslubiy izlanishlar. Toshkent, 2009.
7. [www.o`zbek.adabiyoti.com](http://www.o`zbek.adabiyoti.com)

5-mavzu: Bolalar adabiyotida urush va tinchlik mavzusi

Metodik ko`rsatma

Bolalar adabiyotining mafkuraviylashuvi. Ikkinchi jahon urushi va urushdan so`nggi yillar bolalar adabiyoti. Bolalar adabiyotida urush va tinchlik mavzusi. “Sen yetim emassan”, “Qurol bering menga ham”, “To`pchi Muhammad”, “Maktab sening fronting”, “Saraton”, “Besh bolali yigitcha” asarlarida beg`ubor bolalik ruhiyati tasviri.

Topshiriqlar:

1. Ikkinchi jahon urushi yillarida bolalar uchun mo`ljallab yaratilgan asarlar bilan tanishing. Vatanga muhabbat va dushmanga nafrat tuyg`ularining tasvirlanishiga diqqat qiling.
2. G`afur G`ulomning “Sen yetim emassan” she`ridagi mehribon ota timsoliga e`tibor qiling. Bu obraz tilidan ota-onalarga tegishli qanday erkalovchi, allalovchi iboralar aytiladi?
3. “Qurol bering menga ham” she`rida yovuz dushmanga qarshi nafrat g`oyalarining ifodalanishiga e`tibor bering.
4. Urushdan keyingi yillarda bolalar uchun mo`ljallab yaratilgan asarlar bilan tanishing. Ulardagi asosiy obraz va mavzularga e`tibor bering.
5. Ma`lumki, X.To`xtaboyev asarlari qahramonlarining har biri o`ziga xos qiyofa va gapirish manerasiga ega. Hoshimjon va Orifjon timsollari misolida qahramonlarning o`z-o`zini

tanishtiruv lavhalariga e'tibor qiling. Ularda quvnoq va hayotbaxsh yumor birlashib turganini sezdingizmi?

6. "Bolalar adabiyotida urush va tinchlik mavzusi" da referat tayyorlang.

Adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. O'zbek va chet el bolalar adabiyoti. Toshkent, 2002.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 1994.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, 2006.
4. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. Toshkent, 2004.
5. Suyumov A., Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 1995.
6. Safo Matjon, Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti ijodiy-uslubiy izlanishlar. Toshkent, 2009.
7. www.o'zbek-adabiyoti.com

6-mavzu: Xudoyberdi To'xtaboyev bolalar yozuvchisi sifatida

Metodik ko'rsatma

Xudoyberdi To'xtaboyevning bolalarga mo'ljallangan asarlari. Sarguzasht-detektiv asarlar. Adib qahramonlari. Ularga xos xususiyatlar. "Sariq devni minib", "Besh bolali yigitcha" hamda "Omonboy va Davronboy" asarlari. Ularda beg'ubor bolalik ruhiyati tasviri. Adib haqida yaratilgan ilmiy maqolalar.

Topshiriqlar:

1. Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" romanini o'qing. Sarguzasht asarlarga xos belgilarni ko'rsating.
2. Hoshimjon tabiatiga xos sifatlar va qusurlarni ko'rsata olasizmi? Asar qahramonining katta kishalar bilan oson til topishuvi sababini tushuntiring.
3. Shoirlikni havas qilib, o'z she'rlarini tahririyatga olib kelganda tahririyat xodimi Hoshimjonning avval oyog'iga, keyin qorniga, eng oxirida boshiga nazar tashlaganining sababini tushuntiring.
4. "Besh bolali yigitcha" asarini o'qing. Asar qahramoni Orifjonga "besh bolali" laqabining berilish sababini tushuntiring.
5. Asar voqealari qaysi davrda sodir bo'lgan? Urush yillarida o'zbek bolalari hayoti tasviri yozuvchining yana qaysi asarida tasvirlangan?
6. "Omonboy va Davronboy" asarida qanday voqealar tizimi hikoya qilingan? Beg'ubor bolalik ruhiyati tasviri berilgan o'rinlarga e'tibor qarating.
7. X. To'xtaboyev haqida yaratilgan qanday ilmiy maqolalarni o'qigansiz? Ular bilan tanishib, konspektlashtiring.

Adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. O'zbek va chet el bolalar adabiyoti. Toshkent, 2002.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 1994.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, 2006.
4. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. Toshkent, 2004.

5. Suyumov A., Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 1995.
6. Safo Matjon, Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti ijodiy-uslubiy izlanishlar. Toshkent, 2009.
7. [www.o`zbekadabiyoti.com](http://www.o`zbekadabiyoti.com)

7-mavzu: Tursunboy Adashboyev bolalar shoiri sifatida

Metodik ko`rsatma

Tursunboy Adashboyev ijodi, taraqqiyot bosqichlari, she'riy to'plamlari. Tabiat tasvriga bag'ishlangan she'rlar. Shoir ijodida ma'rifiylik. Shoir she'rlarida jamiyat va tabiatning bitmas-tuganmas sir-sinoatlarini bilishga, kashf qilishga intiladigan, kuzatuvchan bola timsoli. Hayotga munosabat talqini. Mustaqillik yillarida yaratilgan she'rlar.

Topshiriqlar:

1. Tursunboy Adashboyev ijodini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda uni qanday bosqichlarga bo'lib o'rganish tavsiya qilinadi? Buning sababi nimada?
2. Shoirning 2003 yilda chop etilgan "Orzularim – qo'sh qanotim" nomli saylanmasiga kiritilgan she'rlar bilan tanishing. Ularni avvalgi to'plamlardagi she'rlar bilan solishtiring. Qanday farqli tomonlar ko'zga tashlanadi?
3. Shoirning qaysi she'rlarida tabiat tasviri berilgan?

4. Qumursqaning tovoni yo`q,
Ninachining qulog`i.
Soqol bilan tug`ilar
Echkilarning ulog`i.
Beumurtqa mayqo`ng`iz,
Ilon qo`lsiz, oyoqsiz.
Nima kechar daraxtlar –
Bo`lsa rangsiz, bo`yoqsiz?

"Har to'kisda bir ayb" she'ridan olingan ushbu misralarga shoir bolalar tabiatiga xos qanday xususiyatni singdirishga harakat qilgan?

5. Shoirning ma'rifiylik ruhi bilan sug'orilgan qanday she'rlarni bilasiz? "Harflarning sarguzashti" ertak-she'ri qaysi asar ta'sirida maydonga kelgan?
6. Tursunboy Adashboyev ijodida xalq og`zaki ijodidan foydalanish qay darajada ko'zga tashlanadi? Fikringizni misollar yordamida dalillang.
7. Tursunboy Adashboyev haqida yaratilgan ilmiy maqolalarni o`qing va konspektlashtiring.

Adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 1994.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, 2006.
3. Adashboyev T. Arslonbob afsonasi. Toshkent, 1988.
4. Adashboyev T. Uch bo'taloq va sirli qovoq. Toshkent, 1990.
5. Adashboyev T. Topishmoqli alifbe. Toshkent, 1997.
6. Adashboyev T. Orzularim – qo'sh qanotim. Toshkent, 2003.
7. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. Toshkent, 2004.
8. Barakayev R. Bolalikning yetti fasli // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2004, 30 iyul.

9. Barakayev R., Ashurov B. Samimiyatdan yo`g`rilgan satrlar // Sharq yulduzi, 2005, № 4. 139-143-betlar.

10. Ashurov B. Tursunboy Adashboyevning badiiy mahorati. Toshkent, 2009.

8-mavzu: Istiqlol davri o`zbek bolalar adabiyoti

Metodik ko`rsatma

Istiqlol davri bolalar adabiyoti va uning o`ziga xos xusuiyatlari. Bu davr bolalar adabiyotida jamiyat hayotining aks etishi. Asosiy mavzu va obrazlar. Istiqlol davri bolalar adabiyotida uslubiy izlanishlar.

Topshiriqlar:

1. Istiqlol davrida bolalar uchun mo`ljallab yaratilgan asarlar bilan tanishing.
2. Istiqlol davri bolalar adabiyotining mavzulariga diqqat qiling.
3. Bu davr adabiyotining o`ziga xos xususiyati kichik kitobxonlarni ijtimoiy muammolar bilan tanishtirishdir. Bu xususiyat bolalar adabiyotiga qachon va qaysi asarlar orqali kirib kelgan edi?
4. Bu davrda yaratilgan qaysi she`rlarda voqeylikni idrok etish, uni o`ziga xos tasvirlashga bo`lgan intilish aks ettirilgan?
5. "Istiqlol davri o`zbek bolalar adabiyoti" mavzusi bo`yicha konspekt tayyorlang. Shu davrda yaratilgan she`rlardan namunalar yod oling.

Adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. O`zbek va chet el bolalar adabiyoti. Toshkent, 2002.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 1994.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, 2006.
4. Barakayev R. O`zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. Toshkent, 2004.
5. Suyumov A., Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, 1995.
6. Safo Matjon, Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti ijodiy-uslubiy izlanishlar. Toshkent, 2009.
7. Ibrohimova Z. Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar. Toshkent, 2006.
8. [www.o`zbek.adabiyoti.com](http://www.o`zbek.adabiyoti.com)

NAMUNAVIY MUSTAQIL TA'LIM ISHLANMASI

Mavzu: T.Adashboyev she'rlarida Ona-vatan va milliy qadriyatlarimiz tasviri

Bolalar adabiyoti yosh avlodni eng yaxshi insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalashga, komil inson bo'lib etishuviga, bolaning beg'ubor qalbida go'zallikni anglash va asrab-avaylash tuyg'ularini shakllantirishga mas'uldir. Shunday ekan, ijodkorning qalb qo'ridan yaralgan har bir satr, har bir misra ana shu ulkan maqsadlarga xizmat qilishi, ularning qalbida o'zi tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan tuproqqa mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirmog'i lozim.

T.Adashboyev bolalar adabiyotining vazifasi nimalardan iborat ekanligini juda yaxshi biladi va ijodida shunga to'la amal qiladi. Shu sababli ham shoir asarlarining mavzu ko'lami benihoya keng. U, avvalo, vatanparvar shoir – kindik qoni to'kilgan tuproq, uning tog'u toshlari, daryoyu ko'llari, qiru adirlari, dala dashtlarini o'z asarlarida to'lib-toshib kuylaydi; vatan tarixi, uning shonli va qayg'uli sahifalari, ushbu tarixda o'z o'rniga ega bo'lgan buyuk ajdodlarimiz hamda kamtarin mehnatkash dehqonu hunarmandlarning mehr bilan yaratilgan timsoli doimo shoir asarlarining markazida turadi. Shuningdek, millatning eng asosiy belgilaridan biri bo'lgan ona tilining qadr-qimmatini ulug'lash, sharaflash ham ijodkor asarlarida alohida o'rin tutadigan mavzulardan. Chunki, shoir uchun eng qadrli narsa – ona-vatan, ona-xalq, ona tili. Bunday asarlarni yaratishdan asosiy maqsad esa o'sib kelayotgan yosh avlodni ona-vatanga, ona-xalqqa, ona tiliga, ota-bobolar ruhiga mehr-muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ular qalbida munosib avlod, farzand bo'lish tuyg'ularini shakllantirishdir.

Ayniqsa, istiqloldan keyin T.Adashboyev ijodida bu mavzular talqini yanada o'zgacha tus oldi, istiqlol uning qalb qo'rida ko'milib yotgan hissiyotlarni baralla namoyish etish, kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproq, uning tarixi ming yillarga borib taqaladigan qanchadan qancha qadriyatlari, jahon ilm-fani, madaniyati, ma'naviyati tarixida alohida o'rin tutadigan ulug' ajdodlari haqida to'lib-toshib kuylash imkoniyatlarini yaratdi. 2003 yilda chop etilgan «Orzularim – qo'sh qanotim» saylanmasiga jamlangan ushbu ruhdagi ko'plab asarlarni avvalgi to'plamlarga kiritilgan she'rlar bilan qiyoslash shoir ijodida tom ma'noda yangi bosqich boshlanganligidan dalolat beradi. Uning tug'ilib-o'sgan ona qishlog'i ta'rifiga bag'ishlangan «Safed Bulon», yarim asrdan ko'proq umri kechgan O'sh shahri madhiga bag'ishlangan «Qarog'im O'sh», mustaqillik madhiyasi bo'lmish «Zar uqali», ulug' ajdodlarimiz madhiga bag'ishlangan «Yassaviy zuryodlari» kabi o'nlab she'rlari faqat mustaqillik sharofati bilangina nashr yuzini ko'rdi, shoir qalbining eng to'ridagi muqaddas his-tuyg'ular sifatida kitobxon qalbiga ham ko'chib o'tish, uning qalbida ham yolg'in yoqish, tug'yon ko'tarish imkoniyatiga ega bo'ldi.

T.Adashboyev ushbu ulug'vor maqsadlarga xizmat qiladigan barkamol asarlarga boy adabiyotimiz adabiy an'analarini bugungi adabiyotimizda muvaffaqiyat bilan davom ettirayotgan o'ziga xos ijodkor ekanligi uning deyarli barcha asarlarida yorqin namoyon bo'ladi. Jumladan, shoir «Saylanma»sining «Ona Vatan» nomli birinchi fasli Vatan vasfiga bag'ishlangan she'rlarni qamrab oladi. U fasl avvalidagi bag'ishlovida:

Ona Vatan,

Durdona Vatan!

Kindik qonim to'kilgan go'sha

Menga Ka`ba,
Yagona Vatan!
Bobolardan merossan – qadim,
Bag`ishlovni Senga atadim («Orzularim – qo`sh qanotim», 11)

der ekan, bu gaplar shunchaki ta`rif-tavsif emas, balki shu yurt farzandining yurak qa`ridan jo`shib chiqqan dil sadolari.

Shoirning Ona-vatan – kindik qoni to`kilgan tuproq sha`niga bag`ishlangan ushbu madhiyasi shaklan qanchalar sodda, muxtasar bo`lsa, mazmunan shu qadar purhikmat, sermazmun. Chunki, Vatanning Ka`baga o`xshatilishi shunchaki ta`rif emas, balki uning yakkayu yagonaligi, «bobolardan meros» qolgan – ko`z qorachig`iday azizu mukarramligini ta`kidlovchi qalb to`ridan otilib chiqqan jo`shqin sadodir.

Ushbu turkumdagi “Qiyosi yo`q”, “Tuproq”, “Zar uqali”, “Qarog`im O`sh”, “Osmoni keng” she`rlarida Ona-vatan go`zalliklarini madh etish, yosh kitobxonni uni ko`z qorachig`iday avaylab-asrashga, qadriga etishga chorlash ruhi birday ustuvorlik qiladi. Shoir:

Sen tug`ilgan,	O`sh, Buxoro,
Qutlug` xona.	Samarqandim.
Aziz diyor,	Qiyosi yo`q,
Pok ostona.	Bu yagona
So`lim o`lka,	Senu menga,
Kesh, Farg`ona	Vatan – Ona.
Qadim Urganch.	Shunday go`zal
Shu durdona	Ulug` yurtkim,
Ko`rkam Toshkent,	Tuprog`ini
Asal-qandim.	Ko`zga surtgin

(«Orzularim – qo`sh qanotim», 12)

der ekan, bu satrlarda qiyosi yo`q bu tuproqning “qutlug` xona”, “aziz diyor”, “pok ostona” sifatlashlari yosh kitobxon qalbida Ona-vatan muqaddasligi tushunchasini shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi, Vatan tuprog`ini ko`zga surtish (tavof qilish) shunchaki gap emas, o`zini ushbu tuproq farzandi deb hisoblaydigan har bir kishining dastlabki insoniy burchi ekanligini ta`kidlaydi, qadim Urganch, Buxoro, Samarqand, O`sh, Kesh, Toshkent singari olamga mashhur, jahon tarixi va madaniyatining beshigi bo`lgan shaharlari bilan faxrlanish his-tuyg`ularini uyg`otadi.

«Tuproq» she`rida “avlodlardan meros bo`lib qolgan”, “bobolarning qon va teri tomgan”, «qotilni ham, botirni ham sukut saqlab, ehtiyotlab, o`z bag`riga olgan» bu tuproq mo`tabaru mukarram onamiz ekanligi tuyg`usi har bir kitobxon ongiga singdiriladi. Zero, «T.Adashboyevning o`lkamizning tarixiy joylari va betakror tabiati tasviriga bag`ishlangan she`rlarida Ona Vatan, kindik qoni to`kilgan muqaddas tuproqqa mehr-muhabbat tuyg`ulari ming yillik qadriyatlarimizga shu qadar samimiyat bilan yo`g`rilganki, bu dilnavoz satrlar yosh kitobxon qalbiga bir o`qishda jo bo`ladi»².

Aslida, vatanimiz tarixi va tarixiy joylari tasviriga bag`ishlangan she`rlar T.Adashboyev ijodining dastlabki pallalaridan alohida o`rin tutadi. Jumladan, «O`sh» she`rida shoir O`sh shahrini ta`riflar ekan, shaharda yashab o`tgan, kindik qoni to`kilgan, poyqadami tekkan

² Barakayev R. Jonajonim, she`riyat. – T.: Cho`lpon, 1997. – B. 5.

ulug` zotlarni, tog`-toshlari, daryo-adirlarini, tarixiy joylarini deyarli birma-bir tilga oladi:
Huvaydoning nazari tushgan,
Seni Vatan aylagan Bonu.
Ayri tushib Andijonidan,
Shoir Mahjur kuyladi yonib («Arslonbob afsonasi», 13).

T.Adashboyev hayoti va ijodining katta qismi O`sh shahri bilan bog`liq. Shu boisdan ham u o`zining «chorak asr shahri O`shda»ligini shukrona bilan tilga oladi, «Uning mehri qalbimga jodir», - deya faxrlanadi, go`zal Baroko`h (Sulaymon) tog`i va unda Mirzo Bobur qurdirgan «Oq saroy» nomli hujra shahar ko`rkiga ko`rk qo`shganligini tarannum etadi, «Oq saroy» sho`ro davrida xarobaga aylantirilganligidan «Oq saroy»ni saqlay olmadik», - deya afsus chekadi, o`shlik buyuk geolog olim Habib Abdullo ruhidan madad so`raydi, «Bag`rim butun, do`stlarim bisyor», - deya qoniqish hissini namoyon qiladi. Xullas, ushbu she`r shoirning Turkistonning qadimiy, tarixiy shaharlaridan biri, ilm-ma`rifat va madaniyat maskani sifatida nom chiqargan ona shahri sha`niga bitilgan madhiyasidir.

T.Adashboyev o`z ijodiga tanqidiy nazar bilan qaraydigan shoir hamdir. U ba`zi she`rlarini keyingi to`plamlariga kiritar ekan, ularni tahrir qilish bilan badiiyatini yanada oshirishga harakat qiladi, hayot haqiqatining badiiy haqiqat darajasiga ko`tarilishini doimo diqqat markazida tutadi. «Orzularim – qo`sh qanotim» to`plamidagi «Osmoni kengroq» she`ri shu jihatdan alohida e`tiborga sazovor. «O`sh» she`rining tahrir qilingan varianti bo`lmish ushbu she`rda ko`zga tashlanadigan asosiy jihat sharoit taqozosi bilan sho`ro davrida ayta olmagan, dilida armon bo`lib yotgan gaplarini shoir istiqlool sharofati sifatida baralla kuylashida namoyon bo`ladi. Fikr dalili uchun she`rlarni qiyoslaymiz. «O`sh» she`rining «Oq saroy»ni saqlay olmadik, // Qursak hamki ko`rkam uy-joylar» («Arslonbob afsonasi», 13) misralari «Osmoni kengroq» she`rida «Qayta qurdik Bobur hujrasin, // va tiklandi ko`rkam saroylar» («Orzularim – qo`sh qanotim», 18) deb tahrir qilingan. Dastlabki she`rda sho`ro davrida tarixiy, milliy qadriyatlarimiz oyoqosti qilingani, Bobur Mirzo O`shda, Baroko`h tog`ida qurdirgan «Oq saroy» nomli hujra buzdirib tashlatilgani afsus-nadomat bilan qayd etilsa, ikkinchisida tarixiy va milliy qadriyatlarimiz istiqlool sharofati bilan tiklanganligidan faxrlanish tuyg`usi ustuvor. Bir qarashda, ehtimol, Bobur Sulaymon tog` (Baroko`hning yana bir nomi)da qurdirgan hujra shunchalik noyob tarixiy obidamiki, she`rda uning buzdirilganidan dod-faryod qilish, qayta tiklanganini bunchalik tantanaga aylantirish shartmidi, deb o`ylash ham mumkin. Biroq Baroko`hdagi Bobur hujrasi tiklangan paytda yo`ldan tog`ning tepasigacha o`n minglab odamlar turnaqator bo`lib, har bir g`ishtni shunchalar balandlikka qo`lma-qo`l qilib etkazganini ko`z oldimizga keltirsak, xalqimiz qalbida ana shunday qadriyatlarga mehr-muhabbat tuyg`usining naqadar poydorligiga yana bir karra iqror bo`lamiz. Chunki sho`ro davrida tojdorligi tufayli qanchalar ta`na-malomatlariga duchor bo`lgan Mirzo Bobur mumtoz adabiyotimizni Alisher Navoiydan keyin badiiyatning yanada baland cho`qqilariga ko`targan, «Boburnoma»day asarlari bilan xalqimiz tarixining muayyan davrlarini tarix zarvaraqlariga zarrin harflar bilan bita olgan ulug` ijodkor, Afg`onistondan Hindistongacha cho`zilgan ulkan Boburiylar imperiyasini tuzgan, o`sha muazzam tarixga o`z nomini ham adabul-abadga muhrlay olgan sohibqironidir. Shu sababli ham uning nomi bilan bog`liq har bir arzimagan zarra ham xalqimiz uchun qadrli, o`shliklar esa o`zlarining ko`p ming yillik tarixga ega bo`lgan qadimiy shaharlariga Mirzo Bobur poyqadami tekkanidan bir umr faxrlanadilar, u qurdirgan hujrani aziz

ziyoratgoh hisoblaydilar.

Ikkinchi tahrir to'rtinchi bandning uchinchi-to'rtinchi misralariga tegishli bo'lib, «O'sh» she'ridagi «Buyuk Habib Abdullo haqqi, // Ruhan undan madad so'rayman» («Arslonbob afsonasi», 13) misralari «Osmoni kengroq» she'rida «Shu yurtdagi buyuklar haqqi, // Men ulardan madad so'rayman» («Orzularim – qo'sh qanotim», 18), deb tahrir qilingan. Tahrir jarayonida mazmun umumlashma darajasiga ko'tarilgan, chunki «buyuklar ruhidan madad so'rash» bilan «Habib Abdullo ruhidan madad so'rash» o'rtasida katta farq bor. Odatda, aziz-avliyolar ruhidan madad so'raladi. Marhum H.Abdullayev esa qanchalik mashhur olim bo'lmasin, aziz-avliyo darajasiga ko'tarilgan emas. Demak, uning ruhidan madad so'rash ham maqsadga muvofiq emas. Bu misraning tahrir jarayonida o'zgartirilganligi hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanishi nuqtai nazaridan o'zini to'la oqlaydi. (A.Oripovning «Pahlavon Mahmuddan so'radim madad» deyishi shu ma'noda maqsadga muvofiq, chunki Pahlavon Mahmud xalq orasida avliyo sifatida mashhur bo'lib, uning ruhidan madad so'ralishi tabiiy.) Oxirgi tahrir she'rning nomlanishi bilan bog'liq. She'r dastlab «O'sh» deb nomlangan edi, keyinchalik bu nom «Osmoni kengroq» deb o'zgartiriladi. Garchi she'rda shoirning O'sh shahrida kechgan chorak asrlik umri bilan bog'liq xotiralar jonlansa-da, qishloqda tug'ilib o'sgan lirik qahramon (shoir) baribir ona qishlog'iga talpinadi, chunki qishloqning oqshomi ham kengroq, qishloq odamlarining fe'li ham, bag'ri ham kengroq. Yakuniy misrada shoir «Rostin aytsam, oqshomi kengroq, // Qishlog'imdan o'rgilib ketay» der ekan (bu misra har ikkala she'rda ham aynan), ba'zan shahar hayotining, xizmatchilikning o'ziga xos ikir-chikirlaridan, mayda gaplaridan to'yib ketgan inson sifatida osmoni keng, yulduzlari charaqlagan qishlog'ini, qishloqning samimiy, sodda, bag'ri keng, to'pori odamlarini sog'inishi, qo'msashi tabiiy. Shu ma'noda she'r sarlavhasi tahriri ham o'zini oqlaydi deb o'ylaymiz.

«Safed Bulon» she'ri T.Adashboyevning tug'ilib o'sgan ona qishlog'i ta'rifiga bag'ishlangan madhiya. (Istiqloldan avval yaratilgan she'rlarida qishloq nomi «Safed Bilol» deb atalgan). Shoir «O'ng'or g'orning kunjida, // Qapchig'ayning pinjida» joylashgan, «Do'ppidek tog'li qishlog'i»ni to'lib-toshib ta'riflaydi, dildan chiqqan samimiy satrlarida sog'inchini, mehr-muhabbatini izhor qiladi. «Boshim uzra» she'ri «Safed Bulon»ning mantiqiy davomi. Zero, bu she'r ham shoirning ona qishlog'i bilan bog'liq xotiralar asosida yaratilgan bo'lib, shoir:

Qishloqdoshlar mehri bilan,

O'sib-unib ko'kargayman.

Safed Bulon tuprog'ini

Boshim uzra ko'targayman («Orzularim – qo'sh qanotim», 56)

deya kindik qoni to'kilgan ona qishlog'iga bir umrlik mehr-muhabbatini samimiyat bilan izhor qiladi.

Lekin shoir umrining chorak asri O'shda kechgan, o'zi aytmoqchi, «vafoli yor, o'g'il-qiz» topgan, shoir sifatida, inson sifatida kamol topgan. Shu sababli ham u «Qarog'im O'sh» she'rida O'shni «qarog'im, charog'im» deb alqaydi, «qaynagan chashma, vulqonsan» deb ta'riflaydi, «Qayda yurmay, qayon turmay, // Nigohim uzra paydosan», deya yigirma besh yil umrining qanchadan qancha yaxshi-yomon kunlari kechgan aziz shaharga mehr-muhabbatini izhor qiladi, «Bobur Mirzo tavof qilgan, // G'aroyib, qutlug' ma'vosan», deya ko'klarga ko'taradi, «Arzir mehning uchun yonsam», deya sadoqatini izhor qiladi. She'r ana

shu samimiyati, qalb qo`ridan chiqqanligi bilan ham O`sh sha`niga bitilgan go`zal madhiya yanglig` yangraydi.

«Uch pahlavon» she`rida Baroko`h tog`ida tilsimga aylanib yotgan afsonaviy uch pahlavon, «Oqbura to`lqinlari» she`rida nortuyadek pishqirib oqayotgan, shaharga alla aytayotgan, keku adovat nimaligini bilmaydigan, O`shga belbog` – zar kamar bo`lgan, Alif Layloning oq tuyasi xunlari hisoblanmish Oqbura daryosi tarannum etiladi. Aslida esa, ularning har biri shoir uchun muborak Ona tuproqning turfa nishonalari, shoir qalbidan yosh kitobxon yuragiga ko`chib o`tmashayotgan, bir umrga singib qoluvchi zarralardir. Zero, «ona yurtga, paxta dalalariga, bobo dehqonga, tug`ilib o`sgan qishloqqa, so`lim va dilbar go`shalarga, ona xalqiga muhabbatdan ulkan va salobatli Vatan tushunchasi va muhabbati o`sib chiqadi»³.

T.Adashboyevning keyingi davrda yaratilgan she`rlari orasida ajralib turadiganlaridan yana biri «Yassaviy zuryodlari» deb nomlanadi. Ushbu she`r tom ma`nodagi istiqlol mevasidir. Chunki, azim Turkiston tuprog`ining Xo`ja Ahmad Yassaviyday ulug` farzandi sha`niga madhiya bitish, uning har bir turkiy musulmon farzandi uchun mo``tabar «Hikmatlar»ini ko`zga to`tiyo deb ta`riflash, Turkistonni «turk qavmining qutlug` sajdagohi» deb tavsiflash faqat mustaqillik tufayligina mumkin bo`ldi. Shoir istiqlol tuhfa qilgan ushbu fikr erki, fikrini izhor qilish erki ne`mati sharofati bilan to`lib-toshib kuylar ekan, she`rini yosh kitobxonga:

Turkiston deb atalmish,

Qadim yurtning farzandi.

Bilgin etti otangni,

Sen kimning asal-qandi? («Orzularim – qo`sh qanotim», 146)

degan murojaat bilan boshlaydi.

Avvalo, shu murojaatning o`zida katta hikmat bor. Chunki sho`rolar mafkurasining asosiy maqsadi xalqimizni minglab yillik o`tmishidan, tarixidan, madaniyatidan, qadriyatlaridan mahrum qilish edi. Shu sababli ham etmish yildan ortiqroq vaqt davomida tinimsiz ravishda dahriylik targ`ib etildi, diniy qadriyatlarimiz yo`qolib ketishga mahkum qilindi, ming yillik yozma adabiyotimizdan sho`ro mafkurasiga xizmat qilishi mumkinlarigina ajratib olinib, qaychilanib, qirtishlanib, «sotsialistik realizm» nazariyasi manfaatlariga bo`ysundirildi, XX asrning yangi adabiyotidan ham faqat shu ruhdagi asarlar talab qilindi. Xullas, xalqimizni, ayniqsa, yosh avlodni ota-bobolarini tanimaydigan, ularni inkor qiladigan sho`ro oktabryatlari, pionerlari va komsomollari qilib tarbiyalashning barcha g`oyaviy qurollari ishga solindi. Bu gaplar bugun barchaga ma`lum. Lekin xalqning eng uyg`oq, og`zaki va yozma adabiyotimizning barhayot an`analari bulog`idan suv ichib shakllangan ilg`or vakillari hisoblangan ijodkorlar birinchi imkoniyat tug`ilishi bilan yana o`sha sarchashmalarga murojaat qildilar, yosh avlodni «yetti otasini» taniydigan, ularga munosib avlodlar qilib tarbiyalash manfaatlariga xizmat qiladigan asarlar yaratishga harakat qildilar. T.Adashboyevning «Yassaviy zurriyodlari» she`ri ham o`z nomi bilan yosh avlodni g`aflat uyqusidan uyg`onishga da`vat qiluvchi, ularni Turkistonning olamni o`z aql-idrok nuri bilan lol qoldirgan Forobiy, Yugnakiydek alloma zotlari, Xo`ja Ahmad Yassaviydek ma`rifat nuri charog`bonlari bo`lmish ota-bobolarini tanish, ularga munosib zuryodlar bo`lishga chorlashi bilan davr talabiga hamohang, dolzarb mavzudagi badiiy jihatdan barkamol faxriya asar

³ Rahimjonov N. Davr va o`zbek lirikasi. – T.: Fan, 1979. – B. 110.

sifatida istiqlol davri o`zbek bolalar she`riyatida o`z o`rniga ega.

Binobarin, shu Vatanda tug`ilib o`sgan, uning noz-ne`matlarini yeb-ichib ulg`aygan, voyaga etgan har bir inson uchun Vatan mehribon, mushfiq ona ekanligini anglash tuyg`usi bolalikdanoq qalbga jo etilishi, qalb to`ridan o`rin egallashi kerakligi tasviri Vatan va ulug`ajdodlarimiz madhi bilan hamohang ravishda T.Adashboyevning ushbu she`rlariga ko`rk bag`ishlaydi, badiiy-estetik va ma`rifiy-tarbiyaviy qimmatini belgilaydi.

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	1
Kirish.....	2
Amaliy ashgʻulotlar.....	3
Mustaqil taʼlim mavzulari, topshiriq shakli va baholash mezonlari.....	11
Naʼmunaviy mustaqil taʼlim ishlanmasi.....	26